



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

Umumiy o'rta ta'lif maktablari matematika fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kaskad usulida seminar-treninglarni tashkil etish to'g'risida

Umumta'lif maktablarida o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish, pedagoglarning salohiyatini oshirish va ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida **buyuraman**:

1. Umumta'lif maktablari matematika fani o'qituvchilari uchun uch bosqichli kaskad usulida treninglar tashkil etilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, treninglar uch bosqichda:

birinchi bosqichda Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari hamda ijod maktablari tizimida faoliyat yuritayotgan yuqori malakali, amaliy tajribaga ega hududiy trenerlar uchun joriy yilning 16-mart kuni onlayn shaklda (Zoom platformasi orqali);

ikkinchi bosqichda tayyorlangan hududiy trenerlar tomonidan tuman (shahar) umumta'lif maktablarida faoliyat yuritayotgan yuqori malakali, amaliy tajribaga ega mahalliy trenerlar uchun joriy yilning 23-24-mart kunlari hududlardagi Prezident maktablarida;

uchinchchi bosqichda mahalliy trenerlar tomonidan tuman (shahar) umumta'lif maktablarining pedagoglarini qamrab olgan holda bir martalik joriy yil yakuniga qadar tuman markazidagi umumta'lif maktablarida tashkil etiladi.

3. Quyidagilar:

umumta'lif maktablari matematika fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha treninglar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

treninglarda ishtirok etadigan matematika fani o'qituvchilari kontingenti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (A.Ubbiyev)ga:
 - ikki kun muddatda treninglar o‘quv-metodik majmularini ishlab chiqish;
 - treninglarni sifatli tashkil etish va o‘tkazish uchun barcha zarur sharoitlar yaratish;
 - treninglar o‘quv-metodik majmularini ishlab chiqish;
 - treninglar yakunida trenerlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun so‘rovnomalar o‘tkazish;
- 2023-yil 16-mart kuni hududiy trenerlar uchun o‘quvlar tashkil etish va ularni o‘quv metodik majmular bilan ta’minalash vazifalari yuklatilsin.
5. Prezident maktablari direktorlariga:
 - treninglar o‘tkazish uchun o‘quv auditoriyalarini ajratish;
 - o‘quv auditoriyalarni zarur texnika-vositalari bilan ta’minalash choralarini ko‘rsin.
6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:
 - treninglarda ishtirok etadigan yuqori malakali hududiy va mahalliy trenerlar ro‘yxatini shakllantirish;
 - ularning belgilangan muddatlarda treninglarda ishtirookino ta’minalash;
 - treninglar yakunida trenerlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun so‘rovnomalar o‘tkazish;
 - mazkur treninglarni mahalliy trenerlar tomonidan barcha tuman (shahar)larda tashkil etish vazifalari yuklatilsin.
7. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova) treninglarni sifatli va belgilangan muddatlarda o‘tkazilishini muvofiqlashtirsin.
8. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishslash boshqarmasi (D.Sobirova) seminar-treninglarni vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlarida va ommaviy axborot vositalarida yoritsin.
9. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlariga va Prezident maktablariga yetkazilishini ta’molasin.

10. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘ribbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “14”-mart,
57 -son